

# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

**PUBLIC EDUCATION**

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2021**

**2-son**  
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



**TAHRIRIYAT**

- 4** Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



**TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI**

- Sh. Mardonov, O. Jabborova 6** Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
- A. Abdullayev 9** Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
- D. Maxmudova 12** Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
- M. Musurmonova 16** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
- R. Musurmanov, M. Musurmonova 20** Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
- F. Ochilov 23** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
- B. Axmadaliyev 27** Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati
- G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova 31** Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli
- U. Shermatova 35** Millat ruhini saqlash yo'lida
- F. Atabekov 39** Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'imi
- O. Jabborova 43** Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning pedagogik muammolari
- M. Achilova 46** Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
- D. Po'latova 50** Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
- Z. Umarova 54** Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish



**TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI**

- M. Abdullayeva 57** Pedagogik va tarbiyaviy ishlar metodikasi
- G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov 61** Uchinchi tartibli tenglamalar
- X. Gulyamova 65** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
- R. Nosirova 69** Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash



**ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI**

- D. Mutalova 73** Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
- L. Boliyeva 76** Oliy ta'limda "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

---

**Berdali AXMADALIYEV,**  
Chirchiq davlat pedagogika instituti  
“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası o‘qituvchisi

## **UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ESTETIK BILIMLARINI VA IJODKORLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA TEXNOLOGIK TA‘LIM DARSLARINING AHAMIYATI**

### **Annotatsiya**

Maqola boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Muallif o‘quvchilarni ijodkorlik sifatlarini tarkib toptirish, kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish, ishlab chiqarishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirgan.

**Kalit so‘zlar.** Ijodiy qobiliyat, bilim, malaka, ko‘nikma, texnologik ta‘lim, badiiy xislatlar.

В статье освещаются вопросы развития творческих способностей учащихся начальных классов. Автор высказывал свое мнение о том, как привить ученикам начальных классов качества творчества, пробудить у них интерес к профессии, сформировать производственные знания, умения и навыки.

**Ключевые слова.** Творческие способности, знания, квалификация, навыки, технологическое образование, художественные качества.

The article deals with the development of creative abilities of primary school students. The author expressed his opinion on how to instill in readers the qualities of creativity, to arouse their interest in the profession, to form industrial knowledge, skills and abilities.

**Key words.** Creative abilities, knowledge, qualifications, skills, technological education, artistic qualities.

**B**ugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining texnologik ta‘limi fani darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik bilimlarini, ijodkorlik sifatlarini tarkib toptirish, kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otish, ishlab chiqarishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishda, turli badiiy buyumlar, o‘yinchoqlar tayyorlash kabi xislatlarning ulkan imkoniyatlari mavjud bo‘lib, uni ro‘yobga chiqarishda texnologik ta‘limi fanining mazmuni, o‘quv ustaxonalari, texnologik ta‘limi fani o‘qituvchisining nazariy izlanishlar va amaliy faoliyatni to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Somondan tayyorlanadigan o‘yinchoqlar: Somondan turli o‘yinchoqlar yasash imkoniyati juda katta. Amaliy ishlardan oldin o‘quvchilar kuzatishlar va tajribalar jarayonida quyidagi savollarga javob topadilar: Qaysi somon – arpa yoki bug‘doy – ochroq tusda? Bu somonlardan qaysi biri egiluvchanroq? Qaysi somon kesish va tekislashda kamroq yoriladi? O‘simlik poyasining qaysi qismi – pastki, o‘rtacha yoki ustki – ish uchun eng qulay?

Kuzatishlar va tajribalar jarayonida o‘quvchilar arpa somoni ochiq va nafis tusga

egaligi, u juda egiluvchan bo'lib, kesish va tekislashda kamroq yorilishini aniqlaydilar. Ish uchun poyaning o'rta qismi eng yaxshi hisoblanadi.



**1-rasm. O'yinchoqlar tayyorlashda foydalanish uchun somonni tayyorlash.**

Ba'zi amaliy ishlar uchun yumshoq, elastik somon kerak bo'ladi. Uni quyidagicha olish mumkin. Somon poyalari keng tog'oraga solib, qaynoq suv quyiladi. Suv sovigach, somon tog'oradan olinadi, u yumshoq va elastik bo'ladi (1-rasm). Bunday somondan qutichalar, savatlar, o'yinchoqlar yasash osonroq (2-rasm).




**2-rasm. Somondan o'yinchoq namunalari.**

Bu o'yinchoqlarni tayyorlashda o'quvchilar somonning texnologik xususiyatlarini o'rganadilar. Ular somonni bog'larga bog'lash, o'rash, pichoq va qaychi bilan kesish mumkinligini bilib oladilar. O'yinchoqqa yakunlangan ko'rinish berish uchun somonga boshqa materiallar, masalan, rangli iplar, gazlama bo'laklari va hokazo qo'shishi mumkin.

O'quvchilar somonlarni barglardan tozalaydilar, tugun oralarini kesib, eng yaxshi bo'laklarni tanlab oladilar, ularni qaynoq suvda damlaydilar, ikkiga bo'ladilar, ochib, dazmol bilan tekislaydilar. Bunda o'quvchilar qaynoq suvda damlangan va kesilgan somon dazmol bilan oson tekislanishi, tor yassi tasmachaga aylanishini aniqlaydilar.

Shoxlardan o'yinchoqlar yasash: Turli o'yinchoqlarni yasash uchun turli daraxt shoxlaridan foydalanish imkoniyati katta. Diqqat bilan qaralsa, deyarli har bir shoxda biron bir hayvon, odam, ertak qahramonining yashirin belgilarini ko'rish mumkin. Turli daraxt shoxlarini qarab chiqib, o'quvchilar ularning o'ziga xos belgilarini biladilar. Shoxlarni pichoq bilan kesib ko'rib, ulardan qaysilari eng qattiqligini aniqlaydilar. To'la qurimagan shoxlarni bukib, ulardan qaysilari eng egiluvchan ekanligini aniqlab oladilar. Bir daraxtning quruq va nam shoxalarini bukib material plastikligi va sinuvchanligini aniqlaydilar. Shoxlarning qurishini kuzatib, bolalar bunda ro'y beruvchi o'zgarishlarni o'rganadilar.

O'quvchilar amaliy ishlar uchun turli shoxlarni tanlab, ulardan turli figuralar yasaydilar (3-rasm). Masalan, bolalar butun shoxadan yugurayotgan odamni eslatuvchi figuralar kesadilar; turli shakl va qalinlikdagi shoxlardan turna, kiyik figuralarini hosil qiladilar, yong'oq va patlar qo'shib raqqosa figurasini yasaydilar.



**3-rasm. Mayda shoxlardan o'yinchoqlar namunasi.**

O'quvchilar tabiatning o'zi ajoyib haykaltarosh, faqat uning g'aroyib yaratmalarida atrofdagi buyumlariga o'xshashliklarni aniqlab, bu o'xshashlikni kuchaytirishga harakat qilish kerak ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

O'quvchilar to'g'ri shoxlarni kuzatish va tajribalar o'tkazib, ular ajoyib qurilish materiali degan xulosaga keladilar. Ulardan o'yinchoq uycha, sol yasash mumkin. Bunda ikkinchi sinf o'quvchilari detallarni mustahkamlashning ratsional usullarini (masalan, loy, plastilin, yelim, iplar va hokazo yordamida) aniqlaydilar.

Oxirida o'quvchilar nam majnuntol shoxlarini kuzatish va sinab ko'rish ishlarini amalga oshiradilar. Ular nam majnuntol shoxchalari juda egiluvchanligini aniqlaydilar. Ulardan turli o'yinchoqlarni o'rab yasash mumkin.

To'ng'iz yong'oqlaridan o'yinchoqlar yasash: Archa va sosna to'ng'iz yong'oqlaridan

o'quvchilar texnologiya darslarida qiziqarli o'yinchoqlar yasaydilar.

O'quvchilar bahorda archa va sosna daraxtlarining shoxlari uchida kchik to'ng'iz yong'oqchalar paydo bo'lishini aniqlaydilar. Kuzga kelib ular yiriklashib etiladi. Yetilgan va daraxtdan tushgan to'ng'iz yong'oqlar turli o'yinchoqlar yasash uchun ajoyib material bo'lib xizmat qiladi.

Ko'pincha yong'oq shaklining o'zi va unda tangachalar joylashuvi o'quvchilarga undan nima yasash mumkinligini aytib turadi. Kuzatishlar jarayonida o'quvchilar zich tangachali oval yirik archa yong'oqlaridan o'yinchoqlar: tipratikan, pingvin, cho'chqacha, echki, ot yasashda; oval sosna yong'oqlaridan turna bo'ynini yasashda; paxmoq archa yong'oqlaridan – xo'roz bo'ynini yasashda; egilgan archa yong'oqlaridan – mushuk gavdasini yasashda foydalanish mumkinligini bilib oladilar.

Texnologik ta'limi darslarida turli badiiy buyumlar tayyorlab o'quvchilarning estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, “TEXNOLOGIK” fani darslarini tashkil etish, o'qituvchining kasbiy ijodkorligini ko'p qirraliligi hamda murakkab kompleks tuzilmaga ega bo'lishi o'ziga xos o'rin tutadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev SH.M. *Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.* –T.: O'zbekiston. 2017-y. 488-bet.

2. Mirziyoyev SH.M. *Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* –T.: O'zbekiston. 2016-yil. 56-bet.

3. Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P. *Mehnat va uni o'qitish metodikasi O'quv qo'llanma.* – 2007-yil. TDPU.

4. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. *Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar. Uslubiy qo'llanma.* –T.: Navro'z. 2013-yil

5. Sanaqulov X, Xodiyeva D, Sanaqulova A *“Mehnat ta'limi” 2-sinf darsligi.* –T., Nafis bezak 2012-yil.

6. Sanaqulov X, Xodiyeva D, Sanaqulova A *“Mehnat ta'limi” 3-sinf darsligi.* – T., Nafis bezak 2012-yil.